

#### PODSHOLIKLAR DAVRIDA QADIMGI MISR MADANIYATI

Inoyatova Yulduz Qaxramon Qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar:** tarix fanlari nomzodi dots: **F.J.Yormatov**

**Kirish** Dunyo halqlari tarixini o'rganar ekanmiz, eng qadimgi davrdanoq har bir xalqda o'ziga xos madaniyat shakllanganligining guvohi bo'lamiz. Qadimgi misrliklar yozuvi insoniyatning ilk yozuvlaridan biri hisoblanadi. Avvaliga har bir so'z rasm ko'rinishida yozilgan. Yozuvdan duolar va marosimlarni yozib borishida foydalanishgan. Shuning uchun ham uni muqaddas yoki yoki Xudolar kalomi deb nomlashgan. Misrliklar alifbosi 750 iyeroglifdan iborat bo'lgan. Har bir so'z o'zida bir qancha razmlar va timsollarni ifoda etgan. Iyerogliflarni o'rganish ancha qiyin ish bo'lgan. Iyerogliflarni qamish, qil qalam bilan papirusga ya'ni papirus poyasidan ishlangan qogozga yozishgan. Turli rangdagi mineral bo'yoqlar siyoh vazifasini o'tagan edi. Ta'lim olayotganda sopol buyumlar parchasiga yoki ohaktoshga yozishgan [1].

Taniqli fransuz olimi Jak- Frantsua Shampolyon 1822 yilda birinchi bo'lib, misr matnlarini o'qishga erishdi. Ana shu kashfiyotdan keyin papiruslarga bitilgan ko'plab matnlar, ibodatxonalar va piramida devorlardagi bitiklar ko'p asrlar jim – jidlikdan so'ng tilga kirdi. Tarixchilar esa Qadimgi Misr sivilizatsiyasini o'rganish uchun muhim va ishonchli manbaga ega bo'lishdi. Bugungi kunda Rozett bitiktoshi Londondagi Britaniya muzeyiga saqlanmoqda. Ilk podsholik davri sug'orish tarmoqlarining rivojlanishi, tosh va mis qurollarining mukammallashuvi, kulolchilik charxining paydo bo'lishi, ayirboshlash savdosining taraqqiy etishi bilan harakterlidir

Ilohiylashtirilgan fir'avnlarning mutlaq hokimiyati g'oyasi mahobatli maqbaralar -ehromlar qurilishida mujassamlantirilgan. Bu ayniqsa III-IV sulolalar davrida (Snofru, Xeops, Xefren, Mikerin ehromlari) avj olgan [2].

Din va ilohiylashtirilgan fir'avn kulti ehtiyojlariga xizmat qilishi lozim bo'lgan. Misr san'ati o'z g'oyalarini qat'iy belgilangan shaklda ifodalagan. Me'morchlik fir'avnlari hokimiyatining qudratini, ulug'vorligini va mashhurligini ko'rsatishga qaratilgan, shu maqsadda bino (ehrom, ibodatxona, saroy va boshqalar) larning ulkan, hashamatli bo'lishiga ahamiyat berildi.

O'rta podsholik davrida M. san'atida bir qator yangi xususiyatlar paydo bo'lgan. Fir'avnlarning maqbaralari o'z mahobatini yo'qotgan, ular ko'pincha qoya toshlarga o'yib ishlangan, irrigatsiya inshootlari (kanallar, to'g'onlar, dambalar, Fayyum tevaragidagi suv omborlari) qurilgan, shaharlarning roli oshgan. Shahar qismlari tabaqaviy bo'linish asosida qurilib, ular devor bilan ajratilgan. O'rta podsholik tasviriy san'atida realistik tendensiyalar kuchaygan [7]. Nomarxlarning maqbaralaridagi devoriy rasmlardagi maishiy ko'rinishlari jonli ishlashga, o'simlik, hayvon, qushlarni jozibador ko'rsatishga, haykallarda modelning harakterini, yoshini va boshqalarni ifodalashga ahamiyat berildi (fir'avnlarning Giksonlar istilosi (miloddan avvalgi 1700-taxminan 1580-yillar)dan keyin Misr san'ati tushkunlik davrini boshidan kechirib, Yangi podsholik davrida katta ravnaq topdi [3]. Osiyoga qilingan zafarli yurishlar, Misr boyligini orttirdi, binolarda hasham ko'paydi. Rasmlar va devoriy rasmlarda ziyofatlar, tantanalar, ov manzaralari aks ettirildi, manzara janriga alohida e'tibor berildi (Rexmir, Naxt, Jes-serkaraseneb maqbaralaridagi devoriy rasmlar, miloddan avvalgi 15-asr oxiri). Yangi podsholik davri me'morligida ochiq tipdagi ibodatxona-sajdagohlar keng tarqalgan. Bu ibodatxona devorlariga fir'avnlarning g'alabalari aks etgan devoriy rasmlar ishlangan (Amonra ma'budning Karnakdagi, miloddan avvalgi 16-12-asrlar va Luqsordagi ibodatxonasi, miloddan avvalgi 15-13-asrlar). Fir'avn Exnaton hukmronligi davrida eski ma'budlarga sig'inish bekor qilingan, yangi ma'bud -Atonga sig'inish joriy qilingan. Yangi poytaxt-Axetatton qurilgan. Haykaltarosh Tutmes yaratgan fir'avn va uning xotini Nefertiti portretlari Qad. M. san'atining nodir namunalari sifatida hozirgigacha yetib kelgan. Miloddan avvalgi 14-asrning 1-yarmida tasviriy san'atda quruq dekorativlik ko'proq ko'zga tashlandi (fir'avn Tutanhamon maqbarasidan topilgan oltin niqob va boshqalar). Miloddan avvalgi 14-asrning 2-yarmidan ibodatxonalar kurilishi kengaygan bu davrda binolarning dabdabali va mahobatli bo'lishiga e'tibor qaratildi (Karnakdagi 134 kolon nali, devor va kolonnalariga rangdor relyeflar ishlangan ibodatxona). Qoya ibodatxonalari ham ko'plab qurilgan (Abu Simbaldagi Ramses II ning katta ibodatxonasi) [4].

Me'morlik, tasviriy va amaliy-bezak san'ati. Din va ilohiylashtirilgan fir'avn kulti ehtiyojlariga xizmat qilishi lozim bo'lgan M. san'ati o'z g'oyalarini qat'iy belgilangan shaklda ifodalagan. Me'morlik fir'avnlarning hokimiyatining qudratini,

ulugʻvorligini va mashhurligini koʻrsatishga qaratilgan, shu maqsadda bino (ehrom, ibodatxona, saroy va boshqalar) larning ulkan, hashamatli boʻlishiga ahamiyat berildi.

Nil daryosi vodiysidagi badiiy madaniyat yodgorliklari qadimdan maʼlum. Miloddan avvalgi 5-4ming yilliklarda loy va qamishdan qurilgan turar joylar oʻrniga asta-sekin yogʻoch va xom gʻishtdan toʻgʻri toʻrtburchak tarxli turar joylar qurilgan. Ilk podsholik davrida qad. M. sanʼati tamoyillari, turlari va janrlari shakllangan. Bu davrda diniy meʼmorlikning asosiy turi-mastabalar toʻgʻri toʻrtburchak tarxda koʻplab qurilgan. Haykaltaroshlikda geometrik uygʻunlik, simmetriya va statistikaga eʼtibor berilgan (firʼavn Xasaxem xaykali, miloddan avvalgi 3ming yillik boshlari) [5].

Qadimgi. podsholik davrida badiiy usullar takomillashgan, yangi meʼmoriy tiplar paydo boʻlgan. Meʼmor Imxotep exromning meʼmoriy tipini yaratadi. U firʼavn Joser uchun Sakkarada marhumlar ruhiga bagʻishlab marosimlar oʻtkaziladigan majmua bunyod etadi, uning markazida pogʻonali maqbara — ehrom (balandligi 60 m., asosi 109,2x121 m) qurgan. Keyinchalik Qad. podsholik meʼmorlari faqat ehrom shakllarini takomillashtirganlar [6]. Gizada meʼmor Xemnun firʼavn Xeops uchun qurgan ehrom (balandligi 146,59 m, asosi 233x233 m), shuningdek, firʼavnlr Xefren (balandligi 143,3 m, asosi 215,25x215,25 m), Mi-kerin (balandligi 62 m, asosi 108,4x108,4 m) ehromlari (barchasi Gizada) shunday inshootlar qatoriga kiradi. Qadimgi podsholik davrida ibodatxonalarining yangi tipi paydo boʻlgan, ular odatda Misr.ning bosh maʼbudi Quyosh maʼ-budi Raga bagʻishlangan. Toʻgʻri toʻrtburchak tarhli bunday ibodatxonani, odatda, ochiq qovlisi boʻlib, uning chekkalarida sajdagohlar va uchiga oltin qoplangan obelisk joylashgan. Maqbara va ibodatxonalar devoriy rasmlar, relyef va haykallar bilan bezatilgan. Bu davrda haykal portretlar sanʼati taraqqiy etdi [8]. Misirliklar tasavvuricha haykal portretlar marhumlarning qiyofadoshi rolini oʻtab, marhumlarning ruxlari joylashgan joy vazifasini oʻtashgan.

Xulosa qilib : aytganda podsholiklar davrida misrda oʻziga hos madaniyati shakllanib, jahon sivilizatsiyasida oʻziga xos oʻringa ega boʻldi

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

---

1. Г. Редера, М., 1963; Струве В. В., Қадимги Шарқ тарихи, Т., 1956
2. Тураев Б. А., Египетская литература, т. II, М., 1920
3. Мате М. Э., Искусство Древнего Египта, М., 1958;
4. Всеобщая история архитектуры, т. II, М., 1970
5. Культура Египта, в кн.: Музыкальная культура древнего мира, [Сб. статей], Л., 1937;
6. Лауер Ж. Ф., Загадки египетских пирамид, пер. с франс., М., 1966
7. Boynazarov F.A. Qadimgi dunyo tarixi Toshkent 2004
8. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent 2009
9. Qosimov E. Jahon tarixi. Qadimgi va o'rta asrlar tarixi Toshkent 2013